

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI YO'LGA QO'YISH STRATEGIYASI

*Namangan viloyati Uchqo'rg'on
tumani 10-son DMTT direktori
Xakimjanova Qunduzxon Egamberdiyevna*

Annatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tizimda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish. Hozirgi kunda bollar salomatligi va psixologiyasiga ta'siri, va ma'naviy marifiy ishlarni maktabgacha ta'lif tizimida samarali tashkil qilish haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bolalar, maktabgacha ta'lif tashkilotlari, ma'naviyat, ma'rifikat, tadbirlar, she'r, raqs.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu bolalarda insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar, odob-axloq qoidalarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayondir. Maktabgacha yosh — shaxsiy fazilatlar asoslari qo'yiladigan muhim bosqich bo'lib, ayni davrda berilgan ma'naviy saboqlar bolaning butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda ma'naviyma'rifiy ishlar samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, xalqimiz o'rtasida hamjihatlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash, milliy qadriyat, an'ana va urf-odatlarni keng targ'ib qilish, badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini faol qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" qarorining qabul qilinishi ham mamlakatimizda birinchi marta ma'naviy-ma'rifiy sohadagi iqtisodiy masalalarni hal etib, uning moliyaviy asoslarini mustahkamlab qo'ymoqda. Bolalar g'ayratli raqsga tushishar, she'rni ko'zlarini yonib, to'tidek o'qishar, biroq, she'r, raqs tugagach, ko'zlarini bo'm-bo'sh, hamma qatori bo'lib qolishar edi. Chunki tarbiya og'zaki edi. Amaliy emas edi. Fazilatlar treninglarda o'rgatilmas, shu sabab natija fazilatga aylanmasdan, bilim darajasida qolib ketar edi. Shuning uchun bugun ayrim yoshli bolalarimizning xulqi bizni ranjitayotgan bo'lsa, bunga ular aybdor emas. Ularning bilmasligi – tushuntirilmaganidan, qilmasligi – o'rgatilmaganidan. Vatanparvarlikni ham, choy suzishni ham, uyalishni, ma'suliyatni, salom berishni ham.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi - kelajagimiz poydevori bo'lmish yosh avlodni ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish, har tomonlama etuk, barkamol avlodni voyaga yetkazish, insonparvarlik, poklik, ezgulik bag'rikenglik, iymonlilik hamda kuchli e'tiqodli etib tarbiyalashga, ma'naviy dunyoqarashi shakllantirishga qaratilgan. Shu boisda barcha ta'lif muassasalarida jumladan, maktabgacha ta'lif

tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning o’tkazishi, yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos o‘rin tutadi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bolaga ta’limiy faoliyatlarda olgan bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Bola milliy ruhda, qadriyatlarimizni his etgan holda ulg‘a boshlaydi va shu bilan bir qatorda bolalarni ehtiyojlari va qiziqishlari jadal suratda o‘sib, takomillashib boradi. Bola borliqni anglay boshlaydi, tengdoshlari bilan ijobiy aloqaga kirisha boshlaydi, jamoaviy ishlashga o‘rganadi, atrofni kuzatadi, tahlil qila boshlaydi, unda savollar tug‘ila boshlaydi. Bola shu tariqa ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy, mafkuraviy ruhda shakllanib boradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ma’naviy tarbiya berishda tadbirlarning o‘rni muhim sanaladi. Bolalarni har tomonlama rivojlantirish, sifatli o‘qitish va maktab ta’limiga tayyorlash maqsadida “Ilk qadam” va “Ilm yo‘li” davlat o‘quv dasturlari yaratildi. Bu dasturlarning to‘laqonli amaliyotga joriy etish maqsadida didaktik materiallar, o‘quvmetodik qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar va har xil turdagи sport inventarlari ta’lim tashkilotlariga etkazib berildi. Maqsad - ta’lim-tarbiya jarayonida o‘rili foydalanish orqali ta’lim-tarbiya sifatini yanada oshirish, optimallashtirishdan iboratdir. Ta’limiy, tarbiyaviy faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifatini oshirish maqsadida “Mahorat maktabi” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. “Mahorat maktabi” ning yo‘lga qo‘yilishi ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga turtki bo‘lmoqda. Bu maktabning faoliyati o‘quv-metodik faoliyatini muvofiqlashtirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini faoliyatda o‘rinli qo‘llash, ilg‘or tajribalarni topish va ular faoliyatini ommalashtirish orqali maktabgacha ta’limda ta’lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash, takomillashtirish bo‘yicha maqsadli, samarali ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Hamkorlik va monitoring

Ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish uchun oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik muhim.

➤ **Ota-onalar bilan ishlash-** Ota-onalar uchun seminar va treninglar tashkil etish, bolalar tarbiyasida ularga amaliy yordam berish.

➤ **Psixologik yordam-** Bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni ta’minalash. Zarur hollarda bolalar psixologidan maslahat olish.

➤ **Monitoring va baholash-** Tarbiya jarayonining samaradorligini muntazam ravishda monitoring qilish va unga tegishli tuzatishlar kiritib borish.

Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ochiq eshiklar kuni” belgilangan tartib asosida tashkil etildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-

ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda ta'lim-tarbiyada milliylikni singdirish maqsadida "Zumradoylar davrasida" nomli ko'rik-tanlovlар tashkil etilib kelinmoqda. MTTlarda faoliyati yo'lga qo'yilgan

Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarg'a jalg etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar *shunga guvohlik beradiki*, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta'minlashi lozim. Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiyo rivojlanish ta'minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko'nikma va faoliyatning turli ko'rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi. Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim. Pedagogik hamkorlikning asosiy holatlari-ta'limga tarbiyachi va bolaning o'zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabat; majburlamasdan o'qitish; qiyin maqsad g'oyasi (bolaning oldiga murakkab maqsad qo'yiladi va uni yengib o'tishiga ishonch hissi singdiriladi); tayanchdan foydalanish (tayanch signallar); o'z-o'zini tahlil qilish (bolalar faoliyati natijalarini yakka tartibda va jamoa bo'lib muhokama qilish); erkin tanlov (tarbiyachi tomonidan ixtiyoriy ravishda bolalarning o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtirishlarini maqsad sifatida belgilab o'qitish vaqtini tanlashi); guruhning intellektual foni (o'qitishning mazkur bosqichida ahamiyatli hayotiy maqsadlarni qo'yish va tarbiyalanuvchilar tomonidan dasturga nisbatan kengroq bilimlar egallash); shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi. Ta'limning natijalari bolada hozirjavoblik, mehribonlik, muloqotchanlik, rostgo'ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, *tashabbuskorlik*, dadillik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, javobgarlikni his qilish, ziyraklik, vazminlik, mardlik, mustaqillik, ishchanlik, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarning o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi. Ma'naviyatning asosida avvalo tarbiya yotadi. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli

yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammallik kasb etishi uchun esa, bu masalada bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani hammamizga ma'lum. Ko'plab bolalarimiz kitob, internet orqali zamonaviy bilimlarni egallamoqda, shu bilan birga qanchadan-qancha yoshlar kitobdan uzoqlashib, qimmatli vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda. Biz yillar davomida qayta-qayta inson qalbi va ruhini izdan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari avj olgan tahlikali bir davrda yashayapmiz, degan fikrni aytib keldik. Ammo bugun dunyoda sodir bo'layotgan mafkuraviy jarayonlar har qachongidan ham ko'ra tahlikaliroq tus olmoqda.

Xulosa shuki, Maktabgacha yoshdagি bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u oila, maktabgacha ta'lim muassasasi va jamiyatning bиргаликдаги са'y-harakatlarini talab etadi. Ushbu strategiya asosida tizimli ish olib borish orqali yosh avlodda yuksak ma'naviyatl, axloqan barkamol shaxsni shakllantirish mumkin. Ma'naviyat, uning asosi bo'lgan yuksak axloq, ruhiy poklik, qalban uyg_oqliк, bedor vijdon, mustahkam iymon bahor nafasiga o'xshaydi. U shakllanib, rivojlanib borarkan o'z yo'lida qancha gullah fasllarini ko'rdi, ayozlarning ta'qibu tahdidlarini boshdan o'tkazdi. Uning faraxbash nafasi ta'siri qanchalar mavjud bo'lsa, afsuski unga qarshi sovuq yellar ham shunchalar mavjuddir. Shu bois ham u hamisha, har bir davrda bu sinovu tahdidlardan kuchli bo'lib, qudratga to'lib o'tadi. Negaki, unga davru davronlarga uyg'onish baxsh etuvchi sohibdillar ezgu amallari birla quvvat baxsh etadi. Boshlanayotgan ma'naviyat bahori barchamizga muborak bo'lsin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagи "Ma'naviy ma'rifiy ishlар samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ -4307-son qarori.
2. Nosirov O'.Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish. Uslubiy qo'llanma, toshkent-2010.
3. Sh.To'rayev, N.Jamolova, N.Xusanova, A.Madraximov, Z.O'lmasxo'jayev, K.To'rayev "DAVLAT TASHKILOTLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH"2023y
4. B.Xusanov "DAVLAT TASHKILOTLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH"2023y 11-14 b